

JADID MA'RIFATPARVARLARNING O'LKA IJTIMOIY MA'NAVIY HAYOTIDA TUTGAN O'RNI

Mo'ydinova Sayyoraxon Eminjon qizi

Andijon davlat Pedagogika instituti Aniq fanlar fakulteti Matematika ta'lim yo'naliishi
1-bosqich talabasi.

sayyoramoydinova45@gmail.com

<https://doi.org/10.5281/zenodo.1449727>

Annotatsiya. Xotiralar, bitiklar, avtobiografiyalar adabiyotning boshqa janrlari kabi muallifning shaxsiy hayotiy tajribasiga asoslanadi. Shu tufayli esdalik xotiralar o'zining sub'ektiv xarakteri bilan ajralib turadi. Zero, mazkur xotiralarda hikoya faqat birinchi shaxs tomonidan olib boriladi. Aynan shu xislati uchun ham esdaliklar adabiyotning eng dolzarb janrlaridan biri hisoblanadi.

Kalit so'zlar: Jadid, ma'rifat, usuli jadid, milliy ko'tarilish, matbuot, muhtoriat.

РОЛЬ СОВРЕМЕННЫХ ПРОСВЕТИТЕЛЕЙ В СОЦИАЛЬНОЙ И ДУХОВНОЙ ЖИЗНИ СТРАНЫ

Аннотация. Мемуары, сочинения, автобиографии, как и другие жанры литературы, основаны на личном жизненном опыте автора. В силу этого воспоминания отличаются субъективным характером. Ведь в этих мемуарах история рассказана только от первого лица. Именно по этому качеству мемуары являются одним из наиболее актуальных жанров литературы.

Ключевые слова: Джадид, просвещение, джадидский метод, национальный подъем, пресса, автономия.

THE ROLE OF THE MODERN ENLIGHTENERS IN THE SOCIAL AND SPIRITUAL LIFE OF THE COUNTRY

Abstract. Memoirs, writings, autobiographies, like other genres of literature, are based on the author's personal life experience. Because of this, memories are distinguished by their subjective character. After all, in these memoirs, the story is told only in the first person. It is for this quality that memoirs are one of the most relevant genres of literature.

Key words: Jadid, enlightenment, Jadid method, national upliftment, press, autonomy.

Kirish. Inson ma'naviyatini yuksaltirishga bo'lgan ehtiyoj keng qamrovli tushuncha sifatida "sanogen tafakkur" mohiyatini tahlil qilishga undab, ijtimoiy munosabatlarning barcha jabhalarini qamrab olmoqda hamda "tafakkur va sog'lom tafakkur" kategoriylarini chambarchas bog'liq tushunchalar sifatida aqliy – mantiqiy munosabatlarni nazorat qilib turuvchi, odamlarning faoliyatiga baho beruvchi zaruriy o'lchov sifatida maydonga chiqarmoqda. Insonning sog'lom fikrlashga undovchi manbalardan biri "Avesto" zardushtiylik dinining muqaddas kitobi bo'lib, qadimiy ajdodlarimiz yaratgan eng qadimiy, noyob bilimlarning xazinasidir.

Unda olamdag'i barcha diniy, dunyoviy, tabiiy fanlar bo'yicha teran fikrlar mujassamlashgan. Jumladan "Avesto"da yaxshi fikr, tarbiyasi xaqida quyidagi mulohazalar uchraydi: "Tarbiya hayotning eng muhim tirdagi tayanchi bo'lib hisoblanishi lozim."

Har bir yoshni shunday tarbiyalash zarurki, u avval yaxshi o'qishni, so'ngra yozishni o'rganishi bilan eng yuksak pog'onaga ko'tarilsin". "Yaxshi fikr, yaxshi so'z, yaxshi ishga shonshavkat baxsh etaman".¹

XIX asr so'nggi choragida Turkistonda xayriya munosabatlarida mahalliy aholi boy qatlaming faoliyati yuqori ahamiyat kasb etgan bo'lsa, XX asr birinchi choragida Turkistonda mahalliy ziyorilar, jadidlar, ma'rifatparvarlar tomonidan xayriya jamiyatlari tashkil etila boshlandi. Jadidchilik harakatining Turkistonda mustaqillik uchun kurashlarda musulmon xayriya jamiyatlarining tuzilishi siyosiy, ijtimoiy va madaniy ahamiyat kasb etdi, ta'lim va madaniyat sohalarini inobatga olgan holda rivojlantirishni ta'minladi va Turkistonning turli hududlarida jadidlar tomonidan asos solingen xayriya jamiyatlari orasida "Tarbiyai atfol", "Jamiyat taraqqiyoti maorifi Buxoro", "Jamiyat xayriya", "Ko'mak", "Imdodiya" eng mashhur jamiyatlar sifatida nom qozondi. Mazkur jamiyatlar faoliyati davomida insonparvarlik tamoyillariga asoslangan beg'araz yordam va xayriya yo'nalishlaridan bordi. Jumladan, Ismoil Gaspirinskiy, Mahmudxo'ja Behbudiy, Munavvarqori Abdurashidxonov, Abdulla Avloniy, Shakuriy, Fitrat kabi jadidlar o'z faoliyatlarida ezzulik, muruvvat va saxovatpeshalik an'analarini davom ettirgan holda turli xil ilmiy va xayriya jamiyatlari tuzishga muvaffaq bo'lganlar. Dastlab, jadidchilik harakatining asoschisi Ismoil Gasprinskiy yuzaga kelgan vaziyatni yaxshi angagan holda "Tarjimon" gazetasi orqali tashviqot kompaniyasini boshlagan. U barcha yerlarda hayriya muassasalarini ochish, hayriya mablag' va manbalarini boshqarish tizimini yaratishga tashviqot qilgan. Birinchi bo'lib u musulmonlar orasida eng keng tarqalgan hayriyani, sadaqani tizimlashtirishni taklif qilgan. Gasprinskiyning ta'kidlashicha, buning uchun "Muruvvat uylari", ko'cha va bozorlarda daydib yurgan yetim, nogiron va muhtojlar uchun "Etimxonalar" yaratish zarur, shuningdek har bir shahar yoki uezda mablag'larni yig'ish va ularni muhtojlarga sarflash uchun "Xayriya jamiyati" ochish kerakligi qayd etilgan.

Jadidlar Turkiston kelajagi bilan bog'liq g'oyalarni xalqqa yetkazish, ularning madaniyma'rifiy saviyasini yuksaltirish maqsadida o'z gazeta va jurnallarini nashr qilishga harakat qildilar. Jumladan, Maxmudxo'ja Behbudiy 1913-yildan boshlab "Samarqand" gazetasini chop qila boshladi. Keyinchalik bu gazeta "Oyna" jurnaliga aylantirildi. Jadidlarning bevosita rahbarligida Toshkentda "Taraqqiy", "Xurshid", "Shuhurat", "Sadoi Turkiston", Qo'qonda "Sadoi Farg'ona", Buxoroda "Buxoroi sharif", "Turon" kabi o'nlab gazeta va jurnallar nashr etila boshladi.

Jadidlar Turkiston kelajagi bilan bog'liq g'oyalarni xalqqa yetkazish, ularning madaniyma'rifiy saviyasini yuksaltirish maqsadida o'z gazeta va jurnallarini nashr qilishga harakat qildilar. Jumladan, Maxmudxo'ja Behbudiy 1913-yildan boshlab "Samarqand" gazetasini chop qila boshladi. Keyinchalik bu gazeta "Oyna" jurnaliga aylantirildi. Jadidlarning bevosita rahbarligida Toshkentda "Taraqqiy", "Xurshid", "Shuhurat", "Sadoi Turkiston", Qo'qonda "Sadoi Farg'ona", Buxoroda "Buxoroi sharif", "Turon" kabi o'nlab gazeta va jurnallar nashr etila boshladi.

Har bir davrda va millatning har bir farzandi ruhida boqiy yashab kelayotgan, Vatanning mustabidlar zulmidan ozod bo'lishini, elga erk, hurriyat istagan xalqimizning qalbi uyg'oq farzandlari bo'lmish jadidlar hamisha fikru yodimizni egallaydi.

¹ <https://www.researchgate.net/profile/Xoliqova-Rahbar/publication>

Bu millat oydinlari tarixini, hayoti va faoliyatini o'rganganimiz sari ular barhayot bo'laveradi, yuraklarimizni bir chetini tirnayotgan armonlar qayta gavdalanadi. Ko'z o'ngimizda turgan haqiqat go'yoki ularni qaytarib olish mumkindek katta umidlar beradi.

Ruhan tirik jadid ajdodlarimizning alamli dardlari, avlodlarimiz tomirlarida oqayotgan ma'rifatparvarlarning qonli vasiyatlari, tillarda qotib qolgan Vatan hasratlari xayollardan tasvirlarga, o'ylardan kitoblarga, odamlardan olamlarga ko'chaveradi, kuchaveradi...

100-yillar o'tsa hamki milliy o'zlik tarixi, mustaqil millat, mustaqil yurt, mustaqil mafkura haqiqati yolqinlanaveradi.

To'g'ri, ularning quhib yig'laydigan qabrlari yo'q – yo'qotilgan, izlari yo'q – o'chirilgan.

Lekin jadidlar yashaydigan qalblar bor — so'nmaydigan, ma'rifatga tashna jadidchi izdoshlar bor — ahididan qaytmaydigan, jadidona adabiyot xazinasi bor — to'lg'onib, talpinib o'qiladigan, demakki, ular o'lman — ular biz o'qigan sahifalarda qayta yaralmoqda.

Xulosa. Mamlakatimizda ma'naviy jihatdan barkamol, ruhiy va jismoniy jihatdan sog'lom, vatanparvar, fidoyi insonni tarbiyalash, yangi avlodni voyaga yetkazish vazifalarini amalga oshirish zaruratining oshishi uzlusiz ta'lim tizimining asosiy bosqichlaridan biri umumiy o'rtta ta'lim muassasalarida tahsil oluvchi o'smir yoshidagi o'quvchilarda tafakkurni rivojlantirishning ijtimoiy-psixologik xususiyatlarini o'rganishga bag'ishlangan tadqiqotlarga zarurat tug'dirmoqda.

Buning timsolini jaded marifatparlarida ko'rishimiz mukun. Ular boy tarixi qoldirga yozma manbalarini o'rganish natijasida ruhan bardamlik topamiz. Osha vaqtida jadidlarimiz yoshlarni chet ellerga yuborib ularning ta'lim olishligi uchun va o'zining hayotidagi muhim bo'lgan kasblarini egallashi uchun harakat qilishgan. Buning natijasini hozirgi zamon nafasi bilan ham ko'rishimiz mumkun. Hozirgi texnologiyalar rivojlangan davrda har qanday ta'lim olish ko'rinishi shaklini uchratishimiz mumkun. Kunduzgi ta'lim, kechki sirtqi va bundan tashqari masofaviy ta'lim shakllaridan foydalangan holda bilim olib chet davlatlarga borib ilm bilim almashib, shu o'zbekiston kelajagi ravnaqiga hissa qo'shish har birimizga farz va qarz deb bilsak noto'g'ri bo'lmaydi.

Bilasizmi, nega ular millatning yuragida yashaydi?

Ilm yog'dusiga tashna turkiy dunyoga chiroq tutgan, "**Tilda, fikrda, ishda birlik**" degan ezgu g'oya bilan maydonga chiqqan taraqqiyparvarlar xalqning bolalari taqdirini o'yladilar, millatning ertasini ko'zladilar. Jaholatdan olib chiquvchi yo'lni ta'limda, maktablarda, teatr va kutubxonalarda ko'ra oldilar. Eng og'ir tuzum tebranishlarida yoshlarni ilg'or davlatlarga o'qishga yuborish, ma'rifat ularishish maqsadida yondilar. Jadidlarning g'oyalari milliy uyg'onish, milliy mafkurani tiklash yo'lida qudratli kuchga aylanib, jamiyatni to'lqinlantirib yubordi.

Kim ular? Maqsadlari ne edi?

Ular o'zandan toshgan va ters oqqan daryo, kishanga toqatsiz tulporlar, millatning ko'pirgan qoni, ma'rifatning jaholatdan halqumga kelgan jonidir. Jadidlar – vatan mohiyatidan izlangan savollarning "yangi" sadosi, bag'ri nidoga to'lgan Ona Turkistonning qarog'i ortiga oqqan ko'z yoshlari, shu yurtning o'zligi, Yangi O'zbekistonning ildiz tomirlaridir. Hayot deb atalmish ne'mat qimmati, inson sha'ni va uning hurmati, millat va Vatanga munosiblik ne ekanini anglatish uchun dunyoga kelgan ibratlar ular. Jadidlar biz kirib borayotgan uchinchi renessansning ilk bunyodkorlari, mustaqillik milliy mafkurasi asoschilari, qatag'onlar qayirgan kuchlar, bir asr oldin panjaralar ortiga berkitilgan taraqqiyotdir.

Mustabid tuzumga sig‘magan, o‘z yangi olamiga, o‘z ideologiyasiga ega bu innovatorlarning maqsadlarida millatning ko‘zini ochish, Turkiston ahlining taraqqiy kunlariga erishish, o‘qimishli milliy kadrlar orqali dunyoga chiqish, ma’rifat va madaniyat asosiga erkin fuqarolik jamiyati barpo etishday ezguliklar ustuvor edi.

Taraqqiyotdan ortda qolgan mamlakatni, ta’lim va maorifni isloh qilish, yangilash uchun bel bog‘lagan, “ehtiyoji millat” dardida “bu ketishning oxiri yamondur, o‘qumoq, o‘qutmoq kerakdir...” deya iztirob chekkan **Behbudi** bizning bugunimizdan qatlga qadar umid uzmadni.

Atoqli shoir va “usuli jadid” maorifining ilg‘or yetakchisi **Muhammadsharif So‘fizodaning**

“Bechora ona bo ‘lg ‘uvchi qobila qizlar,

Nozik qo ‘liga olmay o ‘tar xoma va daafmap...” deya millat qizlarining ilm-fan egasi bo‘lishlari uchun qayg‘urishlari Turkiston eliga tarqaladi.

O‘zbek xalqini rivojlangan xalqlar bilan teng ko‘rishni orzu qilgan, fikriy uyg‘onish davrining yetuk mutafakkiri, yangicha qarashlar bilan 75 yoshida ham “qatag‘on mashinas” egalarini vahimaga solgan elning **Ibratlari**

“O‘qingiz, ilmi hikmat sizga, bu ish katta Ibratduri,

Agar ilm o ‘rganursiz barcha ishda sizga nusratduri,

Agar ilm o ‘lmasa, nodon umri barcha kulfatdir,

Bu ashayoi jadidi mubaddini asli hikmatduri “deya bong urganida ziyoning asl zamini g‘aflatga mahkum etilgan edi.

Milliy maktab yaratish, yangi avlodni voyaga yetkazish ishtiyoqida mardonavor qadam tashlagan, otashin nutqlari bilan xalqning g‘ururini uyg‘otgan, mohir pedagog **Munavvar Qorining** eng tahlikali davrda ham “o‘zbek ziyoli bolalarini Germaniyaga yuborib o‘qitishga muhtojmiz. Bolalar o‘qib, ilm bilan tahsil qilib kelsalar, millatga katta xizmat qila oladilar” deya odamlar qalbida kelajak shamini yoqishi hamon ilm ahli yuragini o‘rtab yuboradi. Bundanda ulug‘, bundanda buyuk bir ish bormi millat uchun? Ne sharafki, jadidlar quyosh kabi shunday yaralgan edi, jismu jonlarida shunday fidoiylik sobit edi.

Shu davrning yana bir yoniq yulduzi, o‘zbek xalqining qomusiy olimi, shoir, nosir, o‘tkir publitsist va dramaturg Abdurauf Fitrat ham yurt qayg‘usini o‘z dardi deb bildi. U milliy taraqqiyotning “o‘zbekcha” modeli uchun izchil kurash olib borgan va davlat tuzumini sahna orqali fosh eta olgan mardonavor jadiddir.

“Yuz yillardan beri jafo ko ‘rub, g‘am chekib kelgan turkning qonli ko ‘z yoshlarin etaklaringga to ‘karga keldim.

Qorong‘uliklar ichra yog ‘dusiz qolgan o‘zbek ko ‘zlari uchun tuprog‘ingdan surma olg‘ali келдим...” Buyuk Sohibqironga qarata aytilgan bu so‘zlar aslida turkiylarning sharafi, inson qadr-qimmatini himoya qilish uchun kuchli bir tug‘yon, ichki isyon ekanligi aniq namoyon bo‘ladi.

To‘g‘ri, kelajakni yorug‘likka undagan, Turkistonni junbushga keltirgan bu ma’rifatparvarlik harakati katta to‘silqlarga uchradi, tarix sahifalaridan o‘chirildi, millat yetakchilariga “millatchilar” tamg‘asi urildi, oydin yuzlar qoralandi. Biroq, yosh avlod shuuridan abad joy olgan jadidlarni na kishanli oyoqlar va na bog‘langan qo‘llar ma’rifat yo‘lidan qaytara olmadi, mangulikning siri ham aynan shu ahd va jonfidolikdadir.

Aytish joizki, mamlakatda yangilanishlar to‘lqinini yaratgan, Yangi Renessans davrining elparvar jadidi bo‘la olgan – ma’rifatparvar ajdodlarimizning yetuk davomchisi — Davlatimiz rahbari bugun xalqimiz yuragida qolgan jadidiy alamlarga malham bo‘lmoqda.

So‘ngi yillarda bu hurriyat elchilari xotirasini abadiylashtirish, jadidlar faoliyati va merosini o‘rganish, o‘rgatish masalalariga alohida e’tibor berilmoxda. Mamlakatimizda har yili 31-avgust sanasi “Qatag‘on qurbanlarini yod etish kuni” sifatida keng nishonlanayotgani esa yosh avlod uchun munosib yodnomaga bo‘ldi. Shuningdek, jadidlar tarixiga oid ilmiy va badiiy asarlar nashr etilayotgani, badiiy va hujjatli filmlar yaratilayotgani, dunyo hamjamiyati ishtirokida xalqaro konferensiyalar o‘tkazilayotgani esa milliy ta’lim targ‘ibotchilari xotirasini qayta-qayta jonlanmoqda. Bugun yurtimizda ularning ulug‘ nomlari bilan ataluvchi manzillar, ta’lim maskanlari va so‘lim go‘shalar borki, ularga qadam bosgan har bir vatandoshimiz qalbida jadidona hislar uyg‘onadi. Xususan, Farg‘ona davlat universitetida faoliyat yuritib kelayotgan “Qatag‘on qurbanlari” tarixiy xotira muzeyi — hozirgi kunda viloyatda jadidchilik tarixini muhim manbalar asosida tadqiq etish bo‘yicha o‘ziga xos ilmiy institut vazifasini bajarmoqda. Quvonarlisi, bu dargoh hamisha yoshlar bilan gavjum, jadidlar o‘tmishiga qiziqishi ortib borayotgan talabalar soni yildan yilga ortib bormoqda.

Muhtaram Prezidentimizning sa’y-harakatlari bilan O‘zbekiston Oliy sudi tomonidan 1030 dan ziyod mustabid tuzum qatag‘oniga uchragan vatandoshlarimiz nomi oqlanib, tarixiy adolat qad rostladi va minglab jadidlar avlodlari qalbini yaralagan dog‘lar bitdi.

Zero, Yangi O‘zbekistonda inson qadri ulug‘lanadigan adolatli, erkin va obod jamiyat, xalqparvar davlat, farovon hayot barpo etishga qaratilgan islohotlarimiz jadid bobolarimizning ezgu g‘oya va dasturlariga har jihatdan uyg‘un va hamohangdir.

Xulosa o‘rnida aytish joizki, biz erishgan bugungi farovon hayot, mustaqil Vatan, birdam bo‘lgan xalq, osuda kunlar qurbanlarsiz bunyodga kelmagan. Jadidchilarimizning buyuk namoyondasi — Abdulla Qodiriyning “**moziyg‘a qarab ish ko‘rmak xayrlidir**”, — degan ibratli jumlalarini eslash kifoya. Jaholatga qarshi kurashish, millat sha’nini himoya qilish orqali mustamlaka bo‘lgan Turkistonni dunyoning taraqqiy etgan mamlakatlari safida ko‘rishni orzulagan ajdodlarimiz bugun o‘z maqsadlariga erishdilar. Endilikda bizning — bugungi kun egalarining zimmasida ajdodlarimiz asriy orzularini ro‘yobga chiqarish, tinchlik hukmron bo‘lgan zamanni asray olish, o‘z intilishlari, islohotlardagi ishtiroki, tashabbuslari orqali yoshlarga kimlarning avlodini ekanligini anglatishday kuchli vazifa borligini unutmasligimiz darkor!

Haqiqatki, “Yangi O‘zbekiston” kelajagiga bilim, ma’rifat, toza vijdon, halol mehnat va kuchli salohiyat bilan hissa qo‘sish uchun bizda kuch ham, zakovat ham, imkoniyat ham yetarli!

REFERENCES

1. Abdulahatov N. G‘olib Marg‘iloniyning “Nasab” asari
2. “Islom – tinchlik va bag‘rikenglik dini” konferentsiyasi materiallari. Toshkent – 2020. – B. 86-92
3. Abdulahatov N. Buxoro amiri tabibining xotiralari // “Islom tafakkuri”, (maxsus son) 2020. –B.37-40.

4. Abdulahatov N. Shifokor Mo'minjon Hakim qismati // "Ikkinchı jahon urushida O'zbekiston xalqi jasorati va insonparvarligi – ilmiy kashfiyotlarda" nomli xalqaro konferentsiyasi. Toshkent, 2020.-B.42-48.
5. Abdulahatov N Amir Olimxonning tabibi G‘G‘ Tafakkur. Toshkent, 2020. – № 2. – B. 91-95.
6. Abdulahatov N. Mo'minjon Hakim Marg'iloniy xotiralarida Buxoro me'moriy yodgorliklari // Buxoroda islom madaniyatini modernizatsiyalash va turizmni barqaror rivojlantirish istiqbollari" Xalqaro anjuman. Buxoro. 2020. - B.300-303.
7. Abdulahatov N. Mo'minjon hakim xotiralarida Abduroziq Marg'inoniy ta'rifi // Imom al-Buxoriy saboqlari. Toshkent, 2020. – № 4. – B.19-20.
8. JOURNAL OF SOCIAL AND HUMANITARIAN RESEARCH.
9. Maxmudjanovna, A. N. (2023). YANGI KONSTITUTSIYADA INSON HUQUQLARINING O'RNI VA XALQARO HUQUQ NORMALARI BILAN UYG'UNLIGI.
10. Salimovna, S. M. (2023). RENAISSANCE OF TIMURID PERIOD AND ITS PLACE IN WORLD CIVILIZATION. Galaxy International Interdisciplinary Research Journal, 11(9), 89-92.
11. Karimov, X. (2024). HISTORY AND CULTURAL LIFE OF THE KYRGYZ NATIONS INHABITANT THE FERGHANA VALLEY (1991-2023, ON THE EXAMPLE OF ANDIJAN, NAMANGAN, FERGANA REGIONS). *Interpretation and researches*, 2(5 (27)).
12. Farhodovna, X. R. O., Sobirjon o'g'li, U. B., & Tohirjon o'g'li, M. Z. (2024). BALIQCHI TARIXI VA ZIYORATGOHLARI. SUSTAINABILITY OF EDUCATION, SOCIO-ECONOMIC SCIENCE THEORY, 2(15), 80-84.
13. Keldiyeva, S. (2024). TURKISTONDAGI JADID YANGI USUL MAKTABLARINING AHAMIYATI. *Interpretation and researches*, (4 (26)).
14. Атабаева, Н. (2024). ПСИХОЛОГИЧЕСКИЙ ПОДХОД К СТУДЕНТАМ ПРИ ПРЕПОДАВАНИИ ПРЕДМЕТА ИСТОРИИ. *Ilm-fan va ta'lim*, 2(2 (17)).
15. Atabayeva, N. M. (2023). Namangan Region Industry in World War II. AMERICAN JOURNAL OF SOCIAL AND HUMANITARIAN RESEARCH.
16. Mahmudjanovna, A. N. (2021). Frontline newspapers cover the contribution of uzbek industry to victory during world war ii. ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal, 11(12), 295-298.
17. Alimjanovna, M. Z. (2022, October). PUBLIC ADMINISTRATION SYSTEM AND SOCIAL LIFE IN THE KINGDOM OF BABURIDS. In Archive of Conferences (pp. 173-187).
18. Alimjanovna, Z. M. (2022). NOSTALGIA IN THE PERSON OF BABUR. European Journal of Interdisciplinary Research and Development, 4, 67-73.
19. Maxmudova, Z. (2022). MILLATLARARO TOTUVLIK VA DINIY BAG'RIKENGLIK O'ZBEK XALQINING YUKSAK QADRIYATIDIR. Journal of Integrated Education and Research, 1(1), 150-154.

20. Hamidova, R. F. (2023). MODERN FORMS OF CONDUCTING THE PEDAGOGICAL COUNCIL. Journal of Modern Educational Achievements, 1212(12), 30-34.
21. Muhammadqobilovna, J. S. (2024). UCHINCHI RENESSANS DAVRIDA BARKAMOL INSON TARBIYASIGA OID MANAVIY-MARIFIY QARASHLAR. Journal of Innovation in Education and Social Research, 2(4), 22-24.